

2022- yil uchun Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

34 858,5

YAHM o'sish
sur'ati

104,0 %

YAHM deflyator
indeksi

112,9 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil uchun Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 34 858,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 4,0 % ga ko'paydi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yil narxlariga nisbatan 112,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,9 % ga yetdi.



**2022- yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	29 693,2	34 858,5	104,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 996,7	33 964,3	104,0
mahsulotlarga sof soliqlar	696,5	894,2	104,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	28 996,7	33 964,3	104,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	13 811,5	16 200,0	102,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 632,2	5 166,6	103,1
sanoat	2 107,7	2 331,2	104,4
qurilish	2 524,5	2 835,4	102,0
xizmatlar	10 553,0	12 597,7	106,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 400,5	2 981,1	109,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 275,9	1 555,1	115,9
boshqa xizmat tarmoqlari	6 876,6	8 061,5	103,4




YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 12 561,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga ko'pdir.

**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHMning o'sish sur'atlari**
*(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan % hisobida)*



**Aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi**
(ming so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,7	97,4
mahsulotlarga sof soliqlar	2,3	2,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	47,6	47,7
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	16,0	15,2
sanoat	7,3	6,9
qurilish	8,7	8,3
xizmatlar	36,4	37,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,3	8,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,4	4,6
boshqa xizmat tarmoqlari	23,7	23,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2021- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 47,6 %

Sanoat 7,3%

Qurilish 8,7%

Xizmatlar 36,4%

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 47,7 %

Sanoat 6,9%

Qurilish 8,3%

Xizmatlar 37,1%

- Yalpi qo'shilgan qiymat
- Mahsulotlarga sof soliqlar

2022- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,4% ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 47,7 % ni, sanoat tarmog'i 6,9 % ni, qurilish 8,3 % ni va xizmatlar sohasi 37,1 % ni tashkil qildi.



2022- yil uchun YAHM o'sishida
tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



4,0

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi**



1,2

Sanoat



0,3

Qurilish



0,2

Xizmatlar



2,2

**Mahsulotlarga
sof soliqlar**



0,1



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,2 f.p. (2021- yilda – 1,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,3 f.p. (2021- yilda – 0,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,2 f.p. (2021- yilda – 1,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2021- yilda – 4,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2021- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.



YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 47,7 %), sanoatda – 104,4 % (6,9 %), qurilishda – 102,2 % (8,3 %), xizmatlar sohasida – 106,3 % ni (37,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,5 % (8,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,9 % (4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % dan (23,7 %) iborat bo'ldi.


YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




2022- yilda YAHM deflyatori indeksi 2021- yildagi narxlarga nisbatan 112,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,4 % va xizmatlar sohasida – 112,3 % qayd etildi.



Qurilish



Xizmatlar



Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)



2022- yilda kichik tadbirkorlik 26 771,3 mlrd. so‘mni tashkil etib (2021-yilda – 22 863,7 mlrd. so‘m), YAHMdagi ulushi 76,8 % ni tashkil qildi (2021- yilda – 77,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

